

## INGLIZ TILIDAGI KOMPYUTER JARGONLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

**Raxmatullayeva Dilrabo Alimjanovna**

Angren Universiteti o`qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilidagi kompyuter jargonlarning semantik xususiyatlari tadqiq qilingan bo`lib, unda kompyuter terminologiyasiga oid leksik birliklar guruhlarga ajratilgan va har bir guruhga oid misollar tahlil qilingan.*

***Kalit so`zlar:** jargon, kompyuter, semantik, leksik birlik, terminologiya, fenomen, neologizm.*

Til va jamiyat, madaniyat va til – bu tushunchalar o`rtasidagi bog`liqlik tilshunoslik bilan qiziqqan har bir kishiga yaqqol ayon. Bu bog`liqlik, ayniqsa, zamonaviy va jadal rivojlanayotgan jamiyatda yanada yaqqol o`z aksini ko`rsatmoqda. XX asrning eng buyuk ixtirolaridan biri sifatida kompyuter haqli ravishda e`tirof etiladi. Shubhasiz, har qanday ixtiro singari, kompyuter ham yangi va kuchli terminologik qatlamni yuzaga keltirdi. Bu qatlam umumiy semantik qonunlar asosida rivojlanadi, shu bilan birga bir qancha o`ziga xos xususiyatlarga ega. Shu xususiyatlardan biri – hazilga moyillikdir. Bu, asosan, ushbu sohaning nazariyasi va amaliyoti rivojlanishi bilan bog`liq terminologik tizimning shakllanishi bir oz kechikishi sababli, bo`sh lisoniy maydon hazilomuz va kinoyali atamalar bilan to`ldiriladi. Bundan tashqari, dasturlash sohasida faoliyat yurituvchi xakerlar yuqori intellektga ega bo`lib, bu ko`pincha hazil tuyg`usi bilan birga kechadi. Shu tariqa, kompyuter jargonini o`ziga xos lingvokultural fenomen deb atash mumkin va bu alohida e`tibor hamda o`rganishga loyiqdir.

Kompyuter terminologiyasiga oid leksik materialni tahlil qilishdan oldin “jargon” tushunchasini aniqlab olish lozim. Jargon – bu professional va ijtimoiy guruhlar tiliga xos bo`lgan, norasmiy xarakterga ega va adabiy tilning neytral sohasida mavjud bo`lgan so`zlarning hazilomuz almashtiruvchisi bo`lib xizmat qiladigan so`zlardir. Jargon ishlatilishi tilning an`anaviy me`yorlaridan chekinishni anglatadi.

Leksik birliklarni tematik nuqtai nazardan tahlil qilish natijasida bir qancha sinonimik qatorlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, kompyuterni yaxshi tushunadigan kishilar uchun quyidagi atamalar ishlatiladi: *jock*, (*computer*) *wizard*, *hacker*, *Internaut*.

Boshqa tomondan, kompyuter tizimlaridan foydalanishni yaxshi bilmaydigan kishilarni ifodalash uchun ham bir qancha sinonimik atamalar mavjud: (*computer*) *nerd*, *loser*, *bagbiter*, (*computer*) *weeny*, *geek*.

Keraksiz ma'lumotlar yoki dastur xususiyatlarini ifodalash uchun *gibberish*, *gubbish*, *cruft*, *dwim*, *bells and whistles* kabi atamalar ishlatiladi.

Bunday variativlik yoki semantik ortiqchalik uslubiy jihatdan past leksika va so'zlashuv tilining xarakterli xususiyati hisoblanadi. Bu ko'pincha nomlanishning ifodaviy tusini yaratishga xizmat qiladi.

Leksik birliklarni nomlash turi nuqtai nazaridan xarakterlash uchun biz V.I. Zabolkinaning tasnifiga murojaat qildik (Zabolkina, 1994: 16-22). U til evolyutsiyasi birligi sifatida nomlanishning, ya'ni ma'noli va shaklning o'zaro bog'liqligi o'zgarishini ta'kidlaydi. Ushbu jarayon jargon va sleng so'zlarining shakllanishida deyarli har doim mavjud. Ushbu tasnifga ko'ra, barcha leksik birliklarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Asl neologizmlar (shakl va mazmun yangiligi);
2. Transnominalizatsiyalar (shaklning yangiligi va ilgari boshqa shakl orqali ifodalangan mazmun);
3. Semantik innovatsiyalar yoki qayta ma'nolar (tilda mavjud bo'lgan shakl orqali yangi ma'no ifodalanadi).

Masalan, metaforik ko'chish natijasida quyidagi so'zlarda yangi leksik-semantik variantlar rivojlandi: *mouse* (kompyuter sichqonchasi), *worm* (chiziqcha), *spike* (tik chiziq), *twiddle* (tilde belgisi) – shakl bo'yicha ko'chish; *salt* (tasvirda xato oq elementlar shaklidagi shovqinlar) – rang bo'yicha ko'chish; *bridge* (ikki tarmoqni ulovchi qurilma), *finger* (ma'lumot ko'rsatuvchi dastur) – funksiya bo'yicha ko'chish;

*zip* (kursorni harakatlantirish), *gobble* (buferdan ma'lumotlarni qabul qilish), *sleep* (kutish rejimida bo'lish) – harakat xarakteri bo'yicha ko'chish.

Metonimik ko'chishga oid semantik innovatsiyalar ham uchraydi (*packet* – kompyuter tarmog'i orqali yuboriladigan ma'lumot hajmi, *hack* – murakkab va aniqlikni talab qiladigan ish, *rape* – fayl yoki dasturni qaytarib tiklab bo'lmaydigan darajada yo'q qilish).

Ikkinchi o'rinda esa asl neologizmlar joylashgan. Bularga quyidagilar kiradi: *computron* (mifologik hisoblash birligi), *crlf* (kursorni qaytarish va qatorni o'zgartirish), *laptop* (tashqi kompyuter), *frob* (dastur, kichik ishlab chiqarma), *feep* (terminalning bir xil ovozi), *hackmem* (xaker eslatmasi), *kludge* (nazariy jihatdan ishlamasligi kerak bo'lgan, lekin nimagadir ishlaydigan qurilma yoki dastur).

Ko'rinib turibdiki, jargon xarakteriga ega so'zlarning shakllanishida adabiy ingliz tilidagi so'z yasash usullari ham ishtirok etadi. Masalan, *cokebottle* (mavjud bo'lmagan belgi), *cyberspace* (kiber-makon) kabi so'zlarning shakllanishida, asosan, so'zlashuv lug'atining asosiy birliklari ishtirok etadi.

Kompyuterdan foydalanish sohasida qisqartmalarning katta miqdorda mavjudligini ta'kidlash joiz. Ayniqsa, qisqartmalar "chat"larda keng qo'llaniladi. "Chat" (ingliz tilidan *to chat* – suhbatlashish) – sinxron elektron aloqa turi bo'lib, telefon suhbatlari kabi, lekin javoblar yozma shaklda amalga oshiriladi.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, kompyuter jargoni – o'ziga xos lingvokultural fenomen bo'lib, jadal rivojlanish bosqichida. Shuning uchun uning xususiyatlarini o'rganish dolzarb va istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Заботкина В.И. Новая лексика современного английского языка. М., 1994.
2. Масловский Е.К. Англо-русский словарь пользователя персональной ЭВМ. М., 2000